



UZUM NAVLARINI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

¹Nabiyev Ulug'bek Shuxratjon o'g'li

²Qayumov Soxibjon Xolmatjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti "Intensiv
sabzavotchilik, bog'dorchilik uzumchilik va issiqxona xo'jaliklari"

kafedrası magistri

¹Toxirjonova Fotima

²ToxirjonovaZuxra

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Mevachilik va
uzumchilik ta'lim yo'nalishi, talabasi.

ARTICLE INFO

Received: 08th June 2023

Accepted: 16th June 2023

Online: 17th June 2023

KEY WORDS

Kishmish, so'g'diyona uzum, xom-ashyo, sifat ko'rsatkich, fizik, kimyoviy, nav, ximoya qopchalari, vegetatsiya davri, shingil.

ABSTRACT

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida, jumladan uzumchilikda yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha Sharqiy Osiyo mamlakatlarida meva-uzum saqlashning qadimiy usullari bilan birga zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda, yangi texnika va texnologiyalar asosida zamonaviy hom ashyolardan tayyorlangan o'rovchi materiallardan keng foydalanish tartib qoidalari va ularning mahsulot sifati hamda boshqa ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda keng tarqalgan "Oq xusayni" xo'raki uzum navidan yuqori hosil olishda xomtok, hosilli novdalar uchini chilpishning ahamiyati katta. Hosilning tovar sifati, transportbopligi, qishda yaxshi saqlanishi ularning vaqtida, sifatli o'tkazilishiga bog'liq.

Tajribaning asosiy maqsadi Respublikamiz ilmiy tadqiqot institutlarida yaratilgan va chet ellardan keltirilgan yangi xo'raki uzum navlarini biologik va xo'jalik xususiyatlarni o'rganish va ulardan yuqori sifatli mahsulot olishdir.

Buning uchun quyidagi vazifalar bajariladi.

- Xoraki uzum navlarini yetarli ekologik sharoitlar (eng janubiy tumanlardan eng shimoliy tumanlarga bo'lgan mintaqalar) da joylashtirish;
- Har bir xo'jalikda turli muddatlarda pishadigan navlarni ekish;
- Qish davrida sovitkichlarda saqlanadigan uzumlar hajmini ko'paytirish bilan uni iste'mol qilishni yangi hosil pishgunga qadar uzaytirish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maxsus tashkiliy-boshqaruv tizimi (uyushma)ni tashkil etish lozim.

Xo'raki uzum navlarini yetishtirishda iqlim va tuproq sharoitlari bilan bir qatorda joyning past-balandligi (relefi) ham katta ahamiyatga ega. Chunki joyning relefiga qarab issiqlik va yorug'likning ko'p yoki kamligi hosil sifatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Tuproqqa ishlov berishdan to hosilni terishgacha bo'ladigan barcha agrotexnika tadbirlari xo'raki uzumlarga xos talab asosida (g'u-jumlarning yirik, shirador, kam kislotalilikka ega bo'lishi va h.k.) olib borilishi zarur. Buning uchun faqat mo'l hosil yetishtirishgagina emas, shuningdek, uzum boshlari va g'ujumlarini ko'rkam qiluvchi, ayrim navlarning transportda tashishga, qishda yaxshi saqlanishiga yordam beruvchi maxsus parvarish usullari (tok gullarini sun'iy



changlash, novdalar uchini chilpish, xomtok, uzum boshlaridagi g'ujumlarni qisman siyraklashtirish va h..) ham majud.

Turli mulkchilik shaklidan qat'i nazar, joyida iste'mol qilinadigan xo'raki uzum navlarini yetishtirishga ixtisoslashgan "Bulog'boshi do'lanali bog'" fermer xo'jaligi yirik aholi yashash joylariga yaqin yerga joylashtirilgan bo'lib, bunday yerlarda dehqon va fermer xo'jaliklari, dala hovlilarning havaskor sohibkorlari ham xo'raki uzumlarni ko'proq yetishtirib, yalpi hosilni oshirish, aholini yangi uzum biln ta'minlash borasida munosib xissa qo'shishlari mumkin.

Biz tajriba olib borgan maydonda ham yuqoridagi xalqimiz tomonidan uzoq yillar davomida to'planib kelingan xalq usullari asosida tokdan yuqori hosil olishda eng arzon, kamxarajat usullaridan foydalanib bir maydonda, bir xil sharoitda, ikki xil usulda fitotexnika ishlarini olib bordik. Maqsadimiz uzum maydonining ko'proq qismidan foydalanishni ko'zlab, uzumdan yuqori hosil olishga alohida ahamiyat berib o'rganishdir. Bu usulda tokni xomtok qilishda ishlatiladigan materiallar, hamda ishlatiladigan jihozlar tabiiy xom-ashyo bo'lib, juda arzonga tushib, har-bir fermer xo'jaligi sharoitida xomtok qilishga imkoniyatlar mavjud. SHuni inobatga olgan holda biz tajribamizdagi fermer xo'jaligida ham tokning yashil qismlari bilan bilan bog'liq ishlarni olib bordik.

Tajriba ob'ekti sifatida uzumning xo'raki navlaridan bo'lgan "Oq xusayni" navidan foydalandik. Tajriba variantlari sifatida fitotexnika ishlarining ikki xil usulidan: sho'ra xomtok va g'o'ra xomtok usulidan foydalandik.

Hosildorlikni oshirish uchun yil davomida olib borilgan agrotexnik va fitotexnik ishlari majmuasi (1ga/150 ts). 1-jadval

t/r	Oylar	Oq xusayni	
		i-variant	II-variant
1	Yanvar	yaxob suv berish	yaxob suv berish
2	Fevral	-	-
3	Mart	mineral va mahalliy o'g'itlar solish, sug'orish	mineral va mahalliy o'g'itlar solish, sug'orish
4	Aprel	sug'orish, oidiumga qarshi oltingugurt purkash	sug'orish, oidiumga qarshi oltingugurt purkash
5	May	gullash oldidan novdalar uchini chilpish, sho'ra xomtok qilish, oidiumga qarshi oltingugurt purkash	gullash oldidan novdalar uchini chilpish, sho'ra xomtok qilish, oidiumga qarshi oltingugurt purkash
6	Iyun	ikkinchi marta gullash oldidan novdalar uchini chilpish, sug'orish, oidiumga qarshi oltingugurt purkash	sug'orish, oidiumga qarshi oltingugurt purkash
7	Iyul	Sug'orish	sug'orish
8	Avgust	sug'orish, hosil beradigan novdalar uchini chilpish, hosilni uzish	sug'orish, hosil beradigan novdalar uchini chilpish, hosilni uzish



9	Sentyabr	-	-
10	Oktyabr	tokka shakl berish va kesish	tokka shakl berish va kesish
11	Noyabr	-	-
12	Dekabr	-	-

Olingan natija asosiy hosilli novdalar uchini chilpish, tok gullashidan 4-5 kun oldin bajarilib, hosilli novdalarning uchi qo'lda 1-2 sm chilpib tashlandi. Chilpilgan novdalar vaqtincha (10-15 kun) o'sishdan to'xtab oziq moddalar sho'ra va mevalarning tugilishiga sarflandi. Buning natijasida hosildorlik 20% ga oshdi, uzum boshlari sifatli bo'ldi. Shunga qaramasdan, bu ish ko'p mehnatni talab qilgani uchun ko'pda qilinmaydi.

References:

1. T.E. Ostanaqulov S.X. Narziyeva, B.X. G'ulomo "Mevachilik asoslari"
2. "Tafakkur bo'stoni" Toshkent-2011
3. Djavakyants Yu.M., Gorbach V.I. Vinograd Uzbekistana. T., 2001.
4. Mirzayev M.M., Temurov SH.S. Bog' va tokzor agrotexnikasi. T., 1978.
5. Temurov SH.S. Uzumchilik. O'zME nashriyoti. T., 2002, 2004.
6. Temurov SH.S. Uzumchilikda ma'ruza matnlari T., 2002, 2004.